

Oriental Journal of Education



THE ROLE OF ONLINE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS OF STUDENTS IN THE FIELD OF ECONOMICS

Shokhina Bakhadirova

Independent researcher at UzSWLU

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: speaking, exam, vocabulary, phrase, translation, information, audience, students, material, communication.

Received: 02.11.25

Accepted: 03.11.25

Published: 04.11.25

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of modern online technologies, which have reached the level of globalization, in foreign language teaching. Furthermore, it thoroughly examines the scientific perspectives and theoretical approaches of scholars related to this issue.

IQTISOD YO'NALISHI TALABALARNI GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA ONLAYN TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Shoxina Baxadirova

O'zDJTU mustaqil izlanuvchisi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: speaking, imtihon, vocabulary, ibora, tarjima, axborot, auditoriya, talabalar, material, muloqot.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi globallashuv davrida chet tillarini o'qitishda keng qo'llanilayotgan zamonaviy onlayn texnologiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur masalaga oid olimlarning ilmiy qarashlari va nazariy yondashuvlari atroflicha o'rganiladi.

СИСТЕМА ЗАДАНИЙ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ПИСЬМЕННОЙ ПЕРЕВОДЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОРПУСНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Шохина Бахадирова

Независимый соискатель УзГСУЯ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: говорение, экзамен, словарный запас, выражение, перевод,

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение современных

информация, аудитория, студенты, материал, общение.

онлайн-технологий, широко применяемых в обучении иностранным языкам в эпоху глобализации. Кроме того, подробно рассматриваются научные взгляды и теоретические подходы учёных, касающиеся данной проблемы.

Kirish. Hozirgi globallashuv paytida ta'lim tizimining samaradorligini va sifatini oshirishda, talabalarni tillarni o'rganishga jalb qilish, shuningdek, ularning zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tilni o'rganishlar zaruriy deb qaralmoqda. Shuningdek, Preidentimiz Shavkat Mirziyoyev chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan shunday fikrlar bildirdilar: “Yurtimizda chet tillarni o'qitish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti keldi. Raqobatdosh davlat qurishni oliy maqsadimiz degan ekanmiz, bundan buyog'iga maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari eng kamida 2 ta chet tilini mukammal darajada bilishlari zarurdir. Shunday qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbarining faoliyatida asosiy mezonga aylanishi lozim. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasi huzurida Chet tillarini o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil qilinishi haqida habar qilindi. Bu Agentlikning asosiy vazifasi dunyoda samarali natija bergan o'qitish metodikasi, dastur va darsliklarini ta'lim tizimda joriy qilish, xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishga ko'maklashishdan iboratdir. Agentlikning yana bir vazifalaridan biri chet tillarini bilish reytingini ham yuritish hisoblanib, chet tillari ustozlari uchun malaka talablari va baholash mezonlarini ishlab chiqishdan ham iborat hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan jarayonlar nofilologik yo'nalish talabalarining ingliz tilini bilishlariga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi, chunki bu jarayon juda muhim, sababi, ular o'z kasb faoliyatlaridan tashqari chet tillarini mukammal bilishlari yosh kadr sifatida yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

Bugungi kunda talabalarining chet tillarni turli xil zamonaviy onlayn texnologiyalar orqali o'rganishi juda muhimdir, chunki shu kabi interaktiv onlayn texnologiyalar talabalarda chet tillarni o'rganishga, ayniqsa, gapirish ko'nikmasini yanada takomillashtirishga yordam beradi.

Shu jihatdan olib qarganda, bu maqolaning asosiy maqsadi- nofilologik yo'nalish talabalarini ingliz tilini o'rganish jarayonida zamonaviy onlayn texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish, hamda samarali tavsiyalar berishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Zamonaviy onlayn texnologiyalardan foydalanishda ba'zi olimlarimiz har xil fikr mulozalar bildirib o'tishgan. Klassen, J., &

Milton, P., shunday deb ta'kidlaydilar dunyo bo'ylab internet shu darajada kengayib rivojlanib bormoqdaki, dars xonalarida ham o'quvchilar, talabalar tomonidan keng qo'llanilmoqda. Va bu

jarayonga juda ham ijobiy qaralmoqda va til o'rganuvchilarida katta qiziqish uyg'otmoqda. Bunga qo'shimcha qilgan holda, Chirag, P. shunday deydi, xorijiy tilda muloqot uchun yaratilgan xonalarda til o'rganuvchilari kompyuterlar orqali har xil programmalarda til o'rganayotganliklari ularga katta zavq bermoqda va albatta o'rganish jarayonini yana qiziqarli qilmoqda. Masalaning boshqa tomonini ko'radigan bo'lsak, ba'zi olimlar xorijiy tillarni o'rgatishda zamonaviy onlayn texnologiyalarning o'rnini unchalik ham muhim emas ya'ni an'anaviy metodlarni qo'llab quvvatlashning o'zi kifoya ekanligini ta'kidlashmoqda. Ayniqsa kichik yoshdagi o'rganuvchilarga bu turdagi onlayn texnologiyalardan foydalanib dars o'rganishlari har tomonlama ularga foydali bo'lmasligini ya'ni ko'z nurining zararlanishi, qiziqishning boshqa tomonga yo'nalib ketishi mumkinligi va boshqalarni ta'kidlab o'tishmoqdalar. Zamonaviy onlayn texnologiyalardan foydalanish haqida olimlar ijobiy fikrlar bildirib bu jarayonni yanada qo'llab quvvatlab kelishmoqdalar.

Hozirgi kunda ta'limning sifatini oshirish va uni zamon talablariga moslashtirish uchun ta'lim berish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Shu o'rinda nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilini zamonaviy onlayn texnologiyalar orqali rivojlantirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi shu orqali talabalar ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini yanada rivojlantirishlari va shuningdek bu jarayon ularning kasbiy faoliyatlarini yanada rivojlantirishlariga o'z hissasini qo'shadi.

Nofilologik ta'lim yo'nalishida zamonaviy onlayn texnologiyalardan foydalanishning tushunchasi va uning ahamiyati

Har qanday til sohasiga qarashli bo'lmagan yo'nalish nofilologik yo'nalish deb qaraladi. Bularga iqtisod, qurilish, dizaynerlik, neftgaz, to'qimachilik va shuningdek boshqalar misol bo'ladi. Shu kabi yo'nalish talabalariga ingliz tillarini maqsadli ravishda zamonaviy onlayn texnologiyalar orqali o'rgatish juda foydali hisoblanadi. Ular aynan o'z sohalarida ingliz tilida gapirish ko'nikmasini zamonaviy onlayn texnologiyalardan foydalangan holda rivojlantirishlari kasbiy faoliyatlari uchun yanada foydali hisoblanadi. Yurtimizda sohasi ingliz tili bo'lmagan talabalarga darsliklar, turli xil metodlar takomillashishi, ularni ingliz tilini yoki har qanday xorijiy tilni mukammal o'rganishlari uchun kerakli shart sharoitlar yaratilmoqda. Har bir soha vakili uchun biror xorijiy tilni mukammal bilishi kasbiy faoliyatida yanada rivojlanishi zamin yaratmoqda. Shuning uchun hozirgi davrda har bir soha vakili uchun chet tillarini o'rganish ayniqsa ingliz tilini mukammal darajada bilishi zarur jarayon hisoblanib kelmoqda. Shu boisi chet tillarini zamonaviy onlayn texnologiyalar orqali yanada interkativ hamda qiziqarli qilib nofilologik talabalarga o'rgatish lozim. Bu orqali talabalarda ingliz tilini o'rgatish jarayonini yanada tezlashtirish, rivojlantirish shuningdek yanada qiziqarli va samarali usullar bilan o'rgatish mumkin. Hayotimizning har bir jabhasida texnologiyaning o'zni yanada rivojlanib borayotgan bir davrda, ilm

sohamizda ham buning yaqqol misolini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayon eng avvalo AKTga bo'lgan e'tibordan boshlandi, ya'ni har bir bilim yurtlarida axborot texnologiyalarining rivojlanishi, kompyuterdan foydalanish juda ham ommalashdi. Shundan so'ng xorijiy tillarni o'rgatuvchi turli xil ilovalar kira boshladi, bu jadallashuv insonlarning bilim olishini faqatgina tezlashtirdi va ko'maklashdi. Shu boisi, ingliz tilini o'rganishda va o'rgatishda zamonaviy onlayn texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Zamonaviy onlayn texnologiyalar orqali gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish:

Zamonaviy onlayn texnologiyalar orqali talabalar gapirish ko'nikmalarida ko'p duch keladigan talaffuz, so'zlarni to'g'ri qo'yib foydalanish, o'ziga bo'lgan ishonchni yanada oshirish kabi bilimlarini yanada rivojlantirishlari mumkin.

– Elsaspeak: ilovasi orqali har qanday yo'nalish o'rganuvchisi ingliz tilida o'z talaffuzini yanada rivojlantirishlari mumkin. Bu ilovada chet tilini o'rganuvchisiga biror o'zini qiziqtirgan mavzuga oid kichik tekstlar berilib, o'qishi so'raladi va o'qish jarayonida yo'l qo'yilgan talaffuz xatoliklari sekin asta bartaraf qilinadi. Mazkur ilova xatoliklarni % (foiz) ko'rinishida taqdim etadi. Xatoliklar o'rganilib, tahlil qilinib yana qayta ilovaga o'qib beriladi. Bu kabi jarayon har qanday talabaning talaffuz xatoliklarini bema'lol barataraf qilishga yordam beradi.

– Reallife: ilovasi orqali talabalar dunyoning har qanday chetidan o'zlariga o'xshash til o'rganuvchilari orqali gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishdan oldin ulardan vocabulary ya'ni (yangi so'zlarni) yod olishlari zarurligini haqida mashqlar taqdim etiladi, so'ngra ularga gapirishni rivojlantirish jarayoniga o'tadilar. Bu ilova orqali har qanday tilni o'rganayotgan talaba o'zida bo'lgan hayajonni yo'qotishga erishadi, chunki muloqot jarayoni insonlar bilan amalga oshiriladi. Jarayon onlayn tarzda texnologiyalar orqali amalga oshirilsa ham o'rganuvchiga ancha yordam beradi.

– Navbatdagi ilovamiz Wordwall ilovasi hisoblanib, bu ilova orqali talabalar mavzulashtirilgan ya'ni o'z yo'nalishlariga mos tushuvchi savollarni praktika qilishlari mumkin. Havola orqali ilovadagi yoki saytdagi savollarga o'tib mini guruhlar yoki juft bo'lgan (partner) holatda gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

Amaliy tajribalar tahlili. Tadqiqot jarayonida nofilologik yo'nalish talabalarning bu kabi zamonaviy onlayn texnologiyalardan foydalanib gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishlarida quyidagi holatlar kuzatilmoqda:

– Talabalar turli xil zamonaviy onlayn texnologiyalardan foydalangan holda o'zlariga onlayn o'quv resurs va materiallar topish, ularni to'g'ri tahlil qilish va samarali qo'llash qobiliyatlari oshganligi;

– Ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan motivatsiya va qiziqishlari sezilarli darajada o'zgarganligi;

– Berilgan material yoki o'quv resurslarini o'zlashtirish uchun talabalarning jamoaviy ko'rinishda yoki individual ish olib borishga qobiliyati rivojlanganligi;

Muammolar va ularning yechimlari. Yuqoridagi keltirib o'tilgan rivojlanishlarga erishish jarayonida ba'zi muammolar ham yuzaga kelib turibdi, ularni hal qilish uchun zaruriy chora tadbirlar amalga oshirish zarur:

– Ba'zi talabalar tomonida texnik vositalardan va zamonaviy onlayn texnologiyalardan foydalanish jarayonida yuzaga kelayotgan texnik muammolarni hal qiluvchi bazani yaratish;

– Zamonaviy onlayn texnologiyalardan foydalanish jarayonida talabalarni doimiy ravishda motivatsiya qilib, qo'llab quvvatlab turish lozim, bu jarayon asosan ustoz muallimlar tomonida amalga oshirilmog'i zarurdir;

– Zamonaviy onlayn texnologiyalardan foydalanish jarayoni uchun doimiy ravishda monitoring va maslahatlashib turish tizimi yo'lga qo'yilishi lozim.

Muhokama va natijalar. Olib borilgan jarayonlar shuni ko'rsatadi, nofilologik yo'nalish talabalarida zamonaviy ta'lim texnologiyalar orqali ularning chet tilidagi gapirish ko'nikmasini rivojlantirish sezilarli darajada oshganligi guvohi bo'lishimiz mumkin. Ularda bu kabi vositalar orqali chet tillarini rivojlantirishlari ingliz tili bilimlari rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi.

Muhokamalardan aniqlandiki, talabalar zamonaviy onlayn texnologiyalar orqali gapirish ko'nikmalarini samarali o'stirganliklari, jamoaviy bo'lib ishlashlari yanada ularning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirgan. Shuningdek, bu kabi ta'lim jarayonida ularda psixologik va texnik muammolar ham yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu muammolar gapirish ko'nikmasini yanada rivojlantirish uchun bartaraf etish chora tadbirlari ko'rilmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, nofilologik ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun zamonaviy onlayn texnologiyalardan foydalangan holda tillarni o'qitish juda ham samarali hisoblanadi. Talabalar ingliz tilini mukammal egallashlari uchun ta'lim tamoyillariga asoslangan holda metodik tizimlarni qo'llash zarurdir va quyidagi takliflar berildi:

1. Ta'lim jarayonida zamonaviy onlayn texnologiyalardan foydalanishda yuzaga kelayotgan texnik muammolarni yechish va kerakli zarur shart sharoitlar yaratish
2. Talabalarni doimiy ravishda qo'llab quvvatlab, onlayn texnologiyalardan foydalanib gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishlari muhimligi anglatib borish zarurligi
3. Ustoz, muallimlar tomonida doimiy ravish rag'batlantirishlar berilib borilishi, va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy onlayn texnologiyalar o'rni haqida fikrlar bildirilishi lozim.

Yuqoridagi barcha fikr mulohazalarni amalga oshirish orqali nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini samarali o'zlashtirishda zamonaviy onlayn texnologiyalar orqali kasbiy kompetensiyalarini oshirishga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gulchexra.Y.T, Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarini masofaviy ta'lim texnologiyalari yordamida avtonom o'qitish ko'nikmasinin rivojlantirish, p 6, 2024
2. Klassen, J., & Milton, P. Enhancing English language skills using multimedia: Tried and tested. Computer Assisted Language Learning.12 (4),281-294. (1999).
3. Chirag.P.Use of Multimedia Technology in Teaching and Learning communication skill. International Journal of Research Academics, 17 (5), 473-495. (2003).
4. <https://share.google/vzhOhghyurvQYWbxQ>
5. Allamuratov G.A.,Zhumayeva G.A. Modern pedagogical technologies in teaching English// Bulletin of Science. 2020. No13.P. 150-154
6. Elovskeya S.V. The use of interactive educational technologies in teaching a foreign language at a university// Bulletin of Tambov University. Series: Humanities. 2018. No 11. P. 138-141.
7. Zakharova M.V. Digital tools for teaching English// World of Pedagogy and Psychology. 2020. No 6 (48). P. 106-116.
8. Исмоилова Р., Кулижанов У., Хабибрахмонова Д. Современные подходы в преподавании английского языка// Scientific progress. 2022. No 15 С 363-368.
9. Нестерова Н. В. Информационные технологии в обучение английскому языку. - Иностранные языки в школе. //No 8, 2005.
10. <https://www.igi-global.com/dictionary/teaching-english-grammar-in-a-hybrid-academic-esl-course/95962>
11. <https://www.igi-global.com/dictionary/the-networked-effect-of-children-and-online-digital-technologies/60879>
12. <https://www.wisdomlib.org/concept/online-technologies>
13. <https://www.etitulo.com/en/the-most-useful-online-technologies-and-tools-for-students-n-10439-en>
14. <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-obrazovatelnye-tehnologii-i-metodiki-v-prepodavanii-angliyskogo-yazyka>